**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MUHAMMADIYEV SARVAR ASQAR O‘G‘LI

SURISHTIRUV VA DASTLABKI TERGOV JARAYONIDA JINOYAT ISHLARINI YURITISH TARTIBINI BOSQICHMA-BOSQICH RAQAMLASHTIRISH MASALALARI

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv
huquq va sud ekspertizasi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025

UDK: 343.1(043.5)(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMADIYEV SARVAR ASQAR O‘G‘LI

SURISHTIRUV VA DASTLABKI TERGOV JARAYONIDA JINOYAT ISHLARINI YURITISH TARTIBINI BOSQICHMA-BOSQICH RAQAMLASHTIRISH MASALALARI

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Yu765 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz (rezyume), rus) Ilmiy kengashning veb sahifasida (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Bazarova Dildora Baxodirovna** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Raxmonova Surayyo Maxmudovna** yuridik fanlar doktori, professor
	Oripov Sobirzoda Sobir o‘g‘li yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 7-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: 99871 233-66-36; faks: 99871 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1405-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: 99871 233-66-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil ___-_____ kuni tarqatildi.

(2025-yil ___-_____dagi ___-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Otajonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

I.B.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

N.S.Salayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish global miqyosda ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. Ayniqsa, jinoyat ishlarini yuritish jarayonida shaffoflik, tezkorlik va samaradorlikni ta’minlash maqsadida surishtiruv va dastlabki tergov bosqichini raqamlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bir qator rivojlangan davlatlar, jumladan, AQSh, Janubiy Koreya, Turkiya, Saudiya Arabistoni singari mamlakatlarda elektron jinoyat ishlarini yuritish tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, natijada ish hujjatlarini raqamli shaklda yuritish, saqlash, tahlil qilish va nazorat qilish imkoniyati kengaygan. Ammo shu bilan birga, ushbu sohada kiberxavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish va normativ-huquqiy bazaning mukammal emasligi kabi muammolar ham mavjud bo‘lib, ularni hal etish uchun qonunchilikni takomillashtirish, zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. “World justice project” xalqaro tashkiloti tomonidan yuritiladigan “Huquq ustuvorligi indeksi”ning 2024-yilgi reytingida O‘zbekiston 142 mamlakat orasida 83-o‘rinni egallab, oldingi yillarga nisbatan past ko‘rsatkichlarni qayd etdi[1]. Bunga, jinoiy sudlov ish yuritish bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlar salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa, jinoiy sudlov ish yuritish sohasida muhim bosqich hisoblangan surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida raqamlashtirishni keng joriy etish orqali sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish zaruriyatini belgilab beradi.

Surishtiruv va dastlabki tergov jarayonini raqamlashtirish masalalari bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlarda asosiy e’tibor raqamli platformalarni ishlab chiqish, elektron dalillarning huquqiy maqomini belgilash hamda raqamli adliya tizimini yaratish masalalariga qaratilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqi doirasida “e-Justice” loyihasi doirasida raqamli tergov usullari bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, surishtiruv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning huquqiy mexanizmi bo‘yicha tadqiqotlar yetarli emas. Xususan, raqamlashtirishning jinoyat-protsessual huquqiy normalarga mosligini ta’minlash, unda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan bog‘liq jihatlar chuqur tadqiq etilmagan. Shu bois, mazkur yo‘nalishda ilmiy tahlillar va normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirishga ehtiyoj yuqori bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda ham sud-huquq sohasini raqamlashtirish, jumladan, jinoyat ishlarini yuritish jarayonida elektron axborot tizimlarini joriy etishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. “Elektron jinoyat ishi” axborot tizimini joriy etish bo‘yicha ishlab chiqilgan loyihalar, surishtiruv va tergov faoliyatida vakolatli davlat organlari o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlash kabi choralar shular jumlasidan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida bevosita jinoyat protsessida jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan boshlab sud hukmi qabul qilinishigacha bo‘lgan jarayonni yagona elektron reestr yaratish orqali individual raqam va QR kod orqali kuzatib borish imkoniyatini joriy qilish, dalillarni to‘plash va mustahkamlash faoliyatini

[1] “Huquq ustuvorligi indeksi”. https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global.

zamonaviy texnologiyalar va so‘nggi ilmiy yutuqlarni joriy qilish orqali to‘liq raqamlashtirish, jinoyat ishlarining elektron shakldagi nusxasini to‘liq yuritish va ushbu ishlar bo‘yicha elektron hujjat almashinuvini ta’minlash kabi muhim va ustuvor yo‘nalishlar belgilandi. Shu bilan birga, mazkur jarayonda normativ-huquqiy asoslarni aniq belgilash, amaliy mexanizmlarni takomillashtirish va ularni bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Jinoyat ishlarini yuritish tartibini raqamlashtirish jarayonida, ayniqsa, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida tizimli yondashuvni yo‘lga qo‘yish bugungi kun talabi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041-son “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PQ-105-son “Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon va qarorlarida hamda sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jinoyat protsessining surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida raqamlashtirishni joriy qilish borasida bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, mamlakatimizda L.I.Isxakova, F.Xamdamova, S.Sadikov, S.Amaniyazova, M.Axmedshayeva, D.B.Bazarova, D.J.Suyunova, G.Z.Tulaganova, M.X.Kadirova, S.M.Raxmonova, I.R.Astanov, A.Abduvaliyev, B.O.Primov, S.S.Oripov, B.X.Xamidov, S.S.Saxaddinov, M.M.Boboyev, D.Abdalimova, Sh.Hamdamov, D.Yusupaliyev, S.Adilxodjayeva, Y.K.Sabirov va boshqalarning ilmiy ishlarida ushbu mavzuda tadqiqot olib borilgan.

Masalan, M.X.Kadirovaning ilmiy tadqiqot ishida jinoyat protsessida raqamlashtirishning, asosan, protsessual muddatlarga ta’siri tadqiq qilingan. Uning fikricha, raqamlashtirishning joriy qilinishi jinoyat protsessi ishtirokchilari tomonidan ish materiallari bilan tanishib chiqish, ish materiallarini qaytarish va ish yurituviga kelib tushishi o‘rtasida yuzaga keladigan muddatlarning qisqarishiga olib keladi. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi natijasida, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar bo‘yicha tergov muddatlari o‘n kundan bir oygacha qisqaradi.

B.O.Primov tadqiqot ishida dastlabki tergov davomida ayrim jinoyat protsessual harakatlarni amalga oshirish va jinoyat alomatlari aniqlangan ma’muriy huquqbuzarlikka oid materiallarni prokurorga topshirish jarayonini raqamlashtirishga oid takliflarni ilgari surgan.

Mazkur tadqiqot ishining yuqoridagilardan farqi esa, undagi takliflar nafaqat dastlabki tergov faoliyati yoki protsessual muddatlarga, balki surishtiruv jarayoni hamda jinoyat ishini yuritish bilan bog‘liq boshqa jihatlarga ham taalluqli bo‘lib, raqamlashtirishning imkoniyatidan kelib chiqib mavjud muammolarga kompleks yechim berishga qaratilgan. Unda raqamlashtirish orqali jinoyat protsessual qonunchilikda belgilangan qoidalarga rioya qilinishini ta’minlashga, huquqdagi ayrim bo‘shliqlarni to‘ldirishga va ziddiyatli normalarni takomillashtirishga hamda sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ish faoliyatini yengillashtirish va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Bu takliflar qonunchilik loyihalari, amaliyotdagi muammolar bilan batafsil yoritib berilgan.

Surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari masalalari MDHga a’zo davlatlar olimlari: I.Y.Pashenko, A.Y.Afanasyev, R.M.Shevsov, A.V.Maksimenko, O.I.Miroshnichenko, L.A.Voskobitova, I.L.Bednyakov, N.A.Razveykina, M.Abduraxmanov, P.Golovnenkov, N.Spitsa, M.S.Neijkasha, S.V.Zuev, I.N.Yakovenko, O.A.Belov, P.S.Pastuxov, R.I.Okonenko, Y.N.Sokolov, V.B.Vexov, A.A.Usachev, L.N.Maslennikova, Y.S.Kudryashova, I.I.Sheremetyev, D.S.Kiselyov, P.M.Morxat, N.M.Korshunov, Y.L.Mareyev, L.A.Serjantova, Y.S.Papisheva, O.V.Dobrovlyanina, Z.Sidikova, L.V.Golovko va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Jinoyat protsessida raqamlashtirishni qo‘llashning ayrim masalalariga xorij olimlari: N.Aletras, D.Tsarapatsanis, D.Preotiuc-Pietro, V.Lampos, T.Marquenie, E.Kindt, Ch.Dowling, A.Morgan, A.Gannoni, P.Jorna, N.Negroponte, S.Schmahl, E.Schlehahn, T.Marquenie kabilarning ilmiy ishlarida e’tibor qaratilgan.

Biroq, yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ushbu tadqiqot ishlarida raqamlashtirishni joriy qilishning nazariy va amaliy jihatlari kompleks tarzda kam o‘rganilgan. Shu bois, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida raqamlashtirishni joriy qilishni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotdagi muammolar uyg‘unligi asosida asoslash ushbu munosabatlar bilan bog‘liq qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi “Sud-huquq tizimini isloh qilish sharoitida jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari” doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida jinoyat ishlarini yuritishni bosqichma-bosqich raqamlashtirish masalasini ilmiy-nazariy hamda amaliy tahlillar asosida kompleks tahlil qilgan holda aniqlangan muammolarga yechim topish, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoyat protsessida raqamlashtirishni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish;

jinoyat protsessida raqamlashtirishning rivojlanish tarixini o‘rganish;

jinoyat protsessida raqamlashtirishning huquqiy tabiatini tahlil qilish;

surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida jinoyat ishlarini yuritishni raqamlashtirishning tartib-taomillarini o‘rganish;

surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida raqamlashtirishni joriy qilishning huquqiy mexanizmini tadqiq qilish;

bugungi kunda surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida joriy etilgan axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish;

jinoyat protsessida raqamli texnologiyalardan foydalanishda xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish;

surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida raqamli texnologiyalarini qo‘llash samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida raqamlashtirishni qo‘llashga oid jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida raqamlashtirishni qo‘llash bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, sud-tergov amaliyotiga doir hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, jinoyat-protsessual huquqi fanida mavjud konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlarni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy, tizimli, qiyosiy-huquqiy, tahliliy, mantiqiy, ijtimoiy so‘rov o‘tkazish, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma’lumotlar tahlili, qonunchilikni sharhlash, qonunni qo‘llash amaliyotini o‘rganish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ma’lumotlarning qog‘oz shaklidagi almashinuvi protsessual muddatlar cho‘zilishiga, hujjatlarni soxtalashtirish holatlariga olib kelganligi bois, surishtiruv va tergov organlarining vakolatli davlat organlari va tashkilotlari bilan elektron idoralararo hamkorligini yo‘lga qo‘yish zarurligi asoslantirilgan;

protsessual harakatlarni amalga oshirishda jinoyat protsessi ishtirokchilari qatnashuvini ta’minlash, ularni surishtiruv-tergov organlariga asossiz chaqirilishini oldini olish, jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan boshlab uning harakati haqida o‘z vaqtida xabardor etib borish tartibini joriy etish maqsadida “SMS - xabarnoma” xizmati orqali elektron xabardor qilish tartibini joriy etish zarurligi asoslab berilgan;

surishtiruvchi va tergovchilar o‘rtasida ish yuklamasini adolatsiz taqsimlash holatlariga yo‘l qo‘yilishi tergov sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi bois, jinoyat ishlarini surishtiruv va tergovga tegishlilik qoidalari asosida surishtiruv yoki dastlabki tergov organiga topshirish jarayonini raqamlashtirish, jinoyat ishlarini bir surishtiruv va tergov bo‘linmasi doirasida surishtiruvchi va tergovchilar o‘rtasida elektron taqsimlashni yo‘lga qo‘yish kerakligi asoslangan;

jinoyat ishlarining tergovi ustidan prokuror nazoratida, protsessual harakatlarni amalga oshirishga sudning ruxsatini olish jarayonida qog‘ozbozlik holatlari saqlanib qolayotganligi, bu ortiqcha xarajatlarni ham yuzaga keltirayotganligi, shuningdek, protsessual muddatlarga to‘la rioya qilinishiga salbiy ta’sir qilayotganligi sababli, surishtiruv va dastlabki tergov ustidan prokuror nazoratini, xususan qabul qilingan qarorlar haqida prokurorni xabardor qilish, surishtiruvchi va tergovchiga ko‘rsatmalar berish, sanksiya berish yoki sanksiya berish uchun sudga iltimosnomalar kiritish, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida “Xabeas korpus” institutini qo‘llashda, xususan sanksiya berish uchun sudga iltimosnomalar va zarur materiallarni taqdim etish, sud tomonidan tayinlangan ehtiyot chorasining bekor qilinganligi haqidagi xabarlarni sudga yuborish jarayonini to‘liq raqamlashtirish zarurligi amaliy misollar bilan asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot davomida aniqlangan muammolar tahlili asosida surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida jinoyat ishlarini yuritish tartibini raqamlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilib, ular asosida “Ishni sudga qadar yuritish bosqichida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi tayyorlangan;

jinoyat ishlarini elektron tartibda yuritishning huquqiy asoslarini belgilash, bu jarayonda ishtirok etuvchi subyektlar, ularning huquq va majburiyatlari hamda vakolatlarini, bu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish shartlarini belgilab berish bo‘yicha tayyorlangan takliflar asosida “Elektron jinoyat ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi ishlab chiqilgan;

surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini joriy etishning ustuvor yo‘nalishlarini, jinoyat ishlarini elektron tartibda yuritishning huquqiy mexanizmlarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan takliflar asosida “Ishni sudga qadar yuritish bosqichida zamonaviy axborot-texnologiyalarini keng qo‘llash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni loyihasi tayyorlangan;

tadqiqot doirasida amalga oshirilgan tahlillar natijasida, jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash jarayonida sodir etilgan soxtalashtirish holati bilan bog‘liq jinoyat fosh etilib, jazo muqarrarligi ta’minlangan hamda jinoyat-protsessual huquqiy normalarni to‘g‘ri qo‘llash, jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyotiga, milliy va xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlariga, tadqiqot natijalarini davlat organlari tomonidan amaliyotga joriy etish va tasdiqlashga, 200 nafardan ortiq respondentlar o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov va tadqiqotlarga, 2019-2024-yillarga oid statistik ma’lumotlar, sud-tergov amaliyoti hujjatlariga asoslanib, xulosa, taklif va tavsiyalar sinovdan o‘tkazilgan hamda ularning natijalari yetakchi mahalliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan qoidalar jinoyat-protsessual huquqi fani nazariyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar doirasida ishlab chiqilgan xulosalardan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, jinoyat protsessi fanidan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, huquqni qo‘llash amaliyotiga doir idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish, elektron axborot tizimlari imkoniyatlarini kengaytirishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida raqamlashtirish imkoniyatlarini keng qo‘llash bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy natijalar asosida:

surishtiruv va tergov organlarining vakolatli davlat organlari va tashkilotlari bilan elektron idoralararo hamkorligini yo‘lga qo‘yish haqidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-105-son qarorining 1-bandi ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 13-maydagi 27/2-114-24-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi natijasida “Elektron surishtiruv va dastlabki tergov” yagona elektron axborot tizimi joriy etilib, zarur ma’lumotlarni tezlikda va haqqoniy qabul qilish imkoniyatlari yaratilgan;

jinoyat protsessi ishtirokchilarini “SMS - xabarnoma” xizmati orqali elektron xabardor qilish haqidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan “Elektron jinoyat ishi” loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Bosh prokuraturaning 2024-yil 11-iyuldagi 27/2-169-24-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi surishtiruv va dastlabki tergov organlari ishini osonlashtirishi bilan birga, fuqarolarga qo‘shimcha qulaylik yaratishga xizmat qilgan;

jinoyat ishlarini surishtiruv va tergovga tegishlilik qoidalari asosida surishtiruv yoki dastlabki tergov organiga topshirish jarayonini raqamlashtirish, jinoyat ishlarini bir surishtiruv va tergov bo‘linmasi doirasida surishtiruvchi va tergovchilar o‘rtasida elektron taqsimlashni yo‘lga qo‘yish haqidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan “Elektron jinoyat ishi” loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Bosh prokuraturaning 2024-yil 11-iyuldagi 27/2-169-24-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi jinoyat-protsessual qonuni normalarini to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlash bilan birga, jarayonda subyektivlikni oldini olishga, ish hajmini adolatli taqsimlash orqali ish sifatini oshirishga, pirovard natijada fuqarolarning huquq va manfaatlari himoyasini yanada ishonchli ta’minlashga xizmat qilgan;

surishtiruv va dastlabki tergov ustidan prokuror nazoratini, xususan qabul qilingan qarorlar haqida prokurorni xabardor qilish, surishtiruvchi va tergovchiga ko‘rsatmalar berish, sanksiya berish yoki sanksiya berish uchun sudga iltimosnomalar kiritish, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida “Xabeas korpus”

institutini qo‘llashda, xususan sanksiya berish uchun sudga iltimosnomalar va zarur materiallarni taqdim etish, sud tomonidan tayinlangan ehtiyot chorasining bekor qilinganligi haqidagi xabarlarni sudga yuborish jarayonini to‘liq raqamlashtirish haqidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan “Elektron jinoyat ishi” loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Bosh prokuraturaning 2024-yil 11-iyuldagi 27/2-169-24-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi qog‘ozbozlik holatlariga chek qo‘yishga, nazorat sifatini oshirish orqali bu boradagi mas’uliyatni yanada oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot ishi doirasida jami 11 ta ilmiy ish, jumladan 5 ta ilmiy maqola (ulardan 2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jinoyat ishlarini yuritishni raqamlashtirishning nazariy-huquqiy tavsifi”** deb nomlanib, unda jinoyat protsessini raqamlashtirish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar, uning huquqiy tabiati, mamlakatimizda jinoyat ishini yuritish bosqichida raqamlashtirishning tadrijiy rivojlanishi kabi masalalar tahlil qilingan.

Jinoyat protsessida raqamlashtirish tushunchasi, bu boradagi ilmiy-nazariy qarashlar, raqamlashtirishni jinoyat protsessida joriy etishning asosiy vazifalari, uning jinoyat protsessida belgilangan prinsiplarga muvofiqligi masalalari mamlakatimiz va MDHga a’zo davlatlar olimlarining fikrlari bilan atroflicha yoritilgan.

M.X.Kadirova, D.Yusupaliyev, S.Oripov, B.Primov, Sh.Hamdamov, S.Sadikov, A.Y.Afanasyev, Y.N.Sokolov, I.Y.Pashenkolarning ilmiy ishlari tahlilidan kelib chiqqan holda, jinoyat protsessida raqamlashtirishning mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Bu borada o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar tasnifi ishlab chiqilib, uch turkumga ajratilgan: jinoyat protsessida raqamlashtirishni joriy qilishning nazariy va ilmiy asoslari, raqamlashtirishni jinoyat-protsessual vositalarning klassik modellariga

joriy etish hamda jinoyat protsessida raqamli texnologiyalardan foydalanishning texnik-kriminalistik imkoniyatlari.

Jinoyat protsessida raqamlashtirishning asosiy vazifalari ro‘yxati shakllantirilgan: jinoyat protsessini soddalashtirish; protsessual muddatlarni qisqartirish va mas’ullarning javobgarligini oshirish; protsessual xatolik, suiiste’molchilik va soxtalashtirish holatlarini oldini olish; jinoyat ishini yuritishda mehnat unumdorligini oshirish; surishtiruv va dastlabki tergov organlarining o‘zaro hamda boshqa tashkilotlar bilan tezkor elektron ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish; surishtiruv va tergov sifatini oshirish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta’minlash.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari muhofazasiga zarar yetkazgan taqdirda, raqamlashtirishni jinoyat protsessida qo‘llashni istisno etishini jinoyat protsessi prinsipi darajasida belgilash taklifi asoslantirib berilgan.

Raqamlashtirishni jinoyat protsessida joriy qilish va amaliyotda qo‘llashga asos bo‘luvchi huquqiy va konseptual asoslar, uning Elektron hukumat islohotlarida tutgan o‘rni, suiiste’molchiliklarni oldini olishdagi ahamiyati, jinoyat protsessual faoliyatni amalga oshirishdagi tezkorligi, mavjud xavf-xatarlar hamda ularning salbiy ta’siriga oid masalalar tadqiq qilingan.

Jinoyat hamda jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha va sohaga oid qabul qilingan boshqa konsepsiyalarda nazarda tutilgan vazifalar ijrosi tahlil qilinib, raqamlashtirishning suiiste’molchilikni oldini olishdagi ahamiyati statistik ma’lumotlar va misollar bilan yoritib berilgan.

Masalan, 2024-yilda surishtiruv va tergov organlari tomonidan 213 ta jinoyat ishi surishtiruv va dastlabki tergov muddati buzilgan holda tergov qilingan bo‘lsa, jinoyat ishi tergovida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun 170 nafar surishtiruvchi va tergovchi prokuror ta’sir chorasi asosida intizomiy javobgarlikka tortilgan[2].

Raqamlashtirishni joriy qilishda xavf-xatarlarni ham inobatga olish maqsadga muvofiq. Masalan, har 39 sekundda bitta, bir kunda esa 2 200 dan ortiq, bir yilda 800 mingdan ortiq kiberxujumlar sodir etiladi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kiberxujumlar hajmi dunyo bo‘yicha 31 foizni tashkil etib, uning ulushi Yevropa (28 foiz) va Shimoliy Amerikaga (25 foiz) nisbatan yuqori. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2023-yilda mamlakatimiz aholisiga qilgan murojaatida so‘nggi yillarda kiberjinoyatlar soni qariyb 25 barobar oshganligi ta’kidlangan.

Surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida raqamlashtirish yo‘nalishlari ro‘yxati shakllantirilgan: elektron hujjatlar bilan ishlash; murojaatlarni elektron tartibda qabul qilish va ko‘rib chiqish; raqamli ekspertiza; sun’iy intellekt va tahlil; elektron nazorat.

Dissertatsiya doirasida raqamlashtirishning rivojlanish tarixi tahlil qilinib, mustaqillik yillarida jinoyat-protsessual qonunchiligimizda raqamli texnologiyalar

[2] Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari Bosh prokurorlarining muvofiqlashtiruvchi kengashining “2024-yil bo‘yicha jinoyatchilik ahvoli, tergov ishlari, prokuror nazorati hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida xalqaro shartnomalarning ijrosi ahvoliga oid ma’lumotlarning jamlanma hisoboti”. 2-bo‘lim, Tergov va surishtiruv organlari faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

imkoniyatlaridan foydalanish zaruriyatining vujudga kelishi va rivojlanishi quyidagi ikki bosqichga bo‘linib, xronologik o‘rganilgan:

birinchi bosqich – axborot-texnologiyalari imkoniyatidan foydalanish zaruriyatini yuzaga keltirgan davr sifatida 1994-2016-yillarni qamrab oladi. Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksi 1994-yilda qabul qilinganligi sababli ham, ushbu davrni shu yildan boshlangan deyish mumkin. Bu davr videoyozuv orqali qayd qilinishi lozim bo‘lgan tergov harakatlari ko‘lamining kengayishiga sabab bo‘lgan omillar, masofadan amalga oshiriladigan ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish zaruriyatining yuzaga kelishi, jinoyatlar bo‘yicha statistika kartochkalarning qog‘ozda yuritilishi, surishtiruv va dastlabki tergov organlarining vakolatli davlat organlari bilan sust hamkorligiga oid jarayonlar bilan bog‘liqlikda ifodalanadi;

ikkinchi bosqich – 2017-yildan bugungi kungacha bo‘lgan davrni qamrab olib, ayni bu davr mamlakatimizda Hukumatning almashinuvi fonida siyosiy plyuralizmning sud-huquq sohasida ham ta’sir etganligida namoyon bo‘ladi. Ushbu davrda yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga qaratilgan normalar qabul qilingan. Xususan, videoyozuvda qayd etiladigan protsessual harakatlar ro‘yxati kengaytirilgan. Ayrim tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazish, “Yuridik yordam” axborot tizimi orqali himoyachini elektron tanlashning protsessual tartibi belgilangan. Shuningdek, “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” hamda “Elektron surishtiruv va dastlabki tergov” yagona elektron axborot tizimlari joriy qilingan.

“Elektron jinoiy-huquqiy statistika” axborot tizimi orqali sodir etilgan jinoyatlarning hisobi yuritib borilib, qaysi toifadagi jinoyatlar o‘sayotganligi, ularni qaysi toifadagi shaxslar sodir etayotganligi, jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi tadbirlar ahvoli qay darajada tashkil etilganligi haqida tahliliy ma’lumotlarni jamlashga yordam beradi.

Undan foydalanuvchilar soni 1 522 nafarni tashkil etib, 2019–2024-yillarda 103 mingdan ortiq jinoyat ishlari ro‘yxatdan o‘tkazilgan, 649 mingdan ortiq statistik kartochkalar to‘ldirilgan.

“Elektron surishtiruv va dastlabki tergov” axborot tizimi davlat organlarining 33 ta axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan bo‘lib, foydalanuvchilar soni 7 390 nafarni tashkil etadi. Axborot tizimi orqali 2022-2024-yillarda 1 mln. 210 mingdan ortiq so‘rovlar yuborilgan. Uning ishga tushirilishi natijasida oyiga qog‘oz sarfidan jami hisobda 1 mlrd. 83 mln. so‘m mablag‘ tejab qolinadi.

Ekspertni so‘roq qilishni videokonferensaloqa rejimida o‘tkaziladigan tergov harakatlari ro‘yxatiga kiritish (so‘rovnomada ishtirok etganlarning 87 foizi ushbu taklifni quvvatlagan) taklifi berilgan. Masalan, qasddan odam o‘ldirish jinoyati bo‘yicha tergov harakatlarida shaxsning ruhiy sog‘lomligini aniqlashni amalga oshiradigan ekspertiza muassasasi faqat Toshkent shahri va Samarqand viloyatlarida joylashgan.

Yoki, X.Sulaymonova nomidagi sud ekspertizalari viloyatlarning markazlarida tashkil etilgan. Birgina, qasddan odam o‘ldirish jinoyatlari bo‘yicha yiliga o‘rtacha 300 ta sud-psixiatriya ekspertizasi o‘tkaziladigan bo‘lsa, uning o‘rtacha 10 foizi bo‘yicha ekspertlar taqdim etilgan xulosa bo‘yicha so‘roqqa jalb qilinmoqda.

Agarda, jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan asoslar bo‘yicha ekspertni so‘roq qilish zaruriyati yuzaga kelsa, bu uzoq hududda joylashgan viloyatlar va tuman (shahar)lardagi surishtiruv va dastlabki tergov organlari uchun bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Yuqoridagi taklif yuzaga kelayotgan ushbu muammo asosida asoslantirib berilgan.

“Elektron surishtiruv va dastlabki tergov” yagona axborot tizimi jumlasi o‘rniga “Surishtiruv va dastlabki tergov” yagona elektron axborot tizimi jumlasini qo‘llash taklif etilgan.

Dissertatsiyaning **“Surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida jinoyat ishlarini yuritishni raqamlashtirishning huquqiy mexanizmi”** nomli ikkinchi bobida surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida jinoyat ishlarini yuritishni raqamlashtirish tartib-taomillari hamda huquqiy chora-tadbirlar haqida fikr yuritilib, qonunchilik hujjatlari hamda huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Unda surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida raqamlashtirishni qo‘llashda rioya etilishi lozim bo‘lgan 5 ta tartib-taomillar mavjud bo‘lishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan: mavjud texnik imkoniyatlarga mutanosiblik; jinoyat protsessidagi aybsizlik prezumpsiyasi va shaxsning qadr-qimmatini hurmat qilish prinsiplariga muvofiqlik; surishtiruv va dastlabki tergov siri oshkor etilmasligini ta’minlash; surishtiruv va dastlabki tergov davomida to‘plangan dalillarning aslini saqlash; inson huquq va erkinliklari himoyasini ta’minlash.

Xususan, mamlakatimizda raqamli xizmatlar hajmi 2016-yildan buyon 3,5 baravarga, ya’ni yiliga o‘rtacha 2,7 trln. so‘mga, aholi jon boshiga nisbatan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 3,2 baravarga oshgan. Doimiy aholi soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 37,5 mln. nafardan oshgan bo‘lsa, internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni 26,7 mln. nafar yoki jami aholining 70 foizidan ortgan[3].

Jinoyatlar soni yiliga o‘rtacha yuz mingta[4], ushbu jinoyat ishlari doirasida ishtirok etuvchi shaxslar qariyb besh yuz mingtaga yetishi inobatga olinsa, internetga ulangan hamda raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin bo‘lgan aholi soni bu ko‘rsatkichga nisbatan ellik baravardan ham yuqori ekanligi, jinoyat protsessida raqamlashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish masalasi aholini raqamli xizmatlar bilan qamrab olish tendensiyasiga muvofiq kelishini ko‘rish mumkin.

Shu bilan birga, dissertatsiyada jinoyat protsessi ishtirokchisini elektron xabardor qilish tartibini joriy qilish taklifi berilib, uni amalga oshirishda protsess ishtirokchisining texnik imkoniyati va roziligi inobatga olinishi ta’kidlab o‘tilgan.

“Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona elektron axborot tizimidan foydalanish ahvoli tahlil qilinganda, axborot tizimida muayyan jinoyat ishiga aloqasi bo‘lmagan mansabdor shaxslarda (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va

[3] O‘zbekistonda internetdan samarali foydalanuvchilar soni ortib bormoqda. https://ict.xabar.uz/reytinglar/ozbekistonda-internetdan.

[4] Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari Bosh prokurorlarining muvofiqlashtiruvchi kengashining “2024-yil bo‘yicha jinoyatchilik ahvoli, tergov ishlari, prokuror nazorati hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida xalqaro shartnomalarning ijrosi ahvoliga oid ma’lumotlarning jamlanma hisoboti”.

ushbu organlarda ishlovchi boshqa shaxslar) ham jinoyat ishiga aloqador ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatlari mavjudligi aniqlangan. Bu esa, aybsizlik prezumpsiyasi prinsipining buzilishi bilan birga, tergov siri oshkor etilishiga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilinishini ta’minlash asosiy mezon deb belgilanganligi bois, surishtiruv va dastlabki tergovning ayrim bosqichlari raqamlashtirishdan holi bo‘lishi lozim. Masalan, qamoq ehtiyot chorasini qo‘llashda sudya gumon qilinuvchi va ayblanuvchi bilan bevosita muloqot qilish orqali haqiqatga aniqlik kiritishi zarurligi sababli, masofadan so‘roq qilish tartibini joriy qilish maqsadga muvofiq emas.

Dissertatsiyaning mazkur bobida ko‘tarilgan muammolar yuzasidan asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida raqamlashtirishni joriy qilish maqsadida shu vaqtga qadar amalga oshirilgan tashkiliy tadbirlar, xususan, prokuratura va ichki ishlar organlarida tashkil etilgan tuzilmalar, ular faoliyatining natijadorligi, “Elektron jinoyat ishi” loyihasining mazmuni hamda uni amaliyotga joriy etilmaganligi sabablari tahlil qilingan.

Xususan, prokuratura va ichki ishlar organlarida axborot texnologiyalariga mas’ul tarmoqlar faoliyatining (qayta) tashkil etilishi surishtiruv va dastlabki tergov faoliyatida raqamlashtirishni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Jumladan, “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” hamda “Elektron surishtiruv va dastlabki tergov” yagona elektron axborot tizimlari ishga tushirilib, mazkur tarmoqlar mas’ulligida yuritib kelinmoqda.

Ta’kidlash joiz, Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan 2018-yilda Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, Bosh prokuror rahbarligida Idoralararo komissiya tarkibi tasdiqlangan, “Elektron jinoyat ishi” dastlabki loyihasi ishtirokchilari ro‘yxati shakllantirilib, uni to‘rt bosqichda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan:

birinchi bosqichda (01.12.2018-yilga qadar) Toshkent shahrining Yakkasaroy va Mirobod tumanlarida “Elektron jinoyat ishi”ning dastlabki loyihasini ishga tushirish;

ikkinchi bosqichda (01.03.2019-yilgacha) ushbu loyihani respublikaning butun hududida bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish;

uchinchi bosqichda (01.10.2019-yilgacha) dastlabki loyihaning sinov natijalariga ko‘ra jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;

to‘rtinchi bosqichda (01.12.2019-yilga qadar) Jinoyat kodeksi va Jinoyat protsessual kodekslarini yangi tahrirda qabul qilish.

Bosh prokuratura tomonidan “Elektron jinoyat ishi”ning dastlabki loyihasi ishlab chiqilib, unda jinoyat protsessi jarayoni jinoyat haqidagi xabarlarni ro‘yxatga olish; tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish; jinoyat ishlarini surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida tergov qilish; sud tergovi hamda hukm chiqarish kabi 5 ta bosqichga bo‘lingan.

Bosh prokuratura tomonidan ishlab chiqilgan texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bo‘yicha, birgina axborot tizimini ishlab chiqish qiymati 2 mlrd. so‘mdan ortiq summaga baholangan[5] va loyihaning to‘liq ishga tushmaslik sabablari aynan byudjet xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan.

Bugungi kunda, jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarini to‘g‘ri qo‘llash yuzasidan ko‘rsatma va qarorlar qabul qilish amaliyoti shakllangan. Mohiyatan ushbu hujjatlar Oliy sud Plenumining jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llash masalalari bo‘yicha tushuntirish berishga oid qarorlariga o‘xshash. Biroq, ushbu hujjatlar (shuningdek, ularga kiritilgan o‘zgarishlar) haqida manfaatdor shaxslarni real vaqt rejimida onlayn xabardor qilish tartibi belgilab berilmagani qo‘pol qonun buzilishlarga sabab bo‘layotganligi amaliy misollar bilan yoritilgan.

Jumladan, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash bo‘yicha kiritilgan prokuror iltimosnomasi sud tomonidan qariyb 1,5 yil avval bekor bo‘lgan ko‘rsatma talablari asosida rad etilib, ushlab turilgan shaxs noqonuniy ravishda ozod etilgan.

Bunday holatlarni oldini olish maqsadida ushbu hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi hisoblangan **www.lex.uz** saytida majburiy e’lon qilib borish zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqot doirasida surishtiruv va dastlabki tergov organlari faoliyatida raqamlashtirish darajasini oshirish maqsadida Bosh vazir rahbarligida respublika idoralararo maxsus komissiyasini tashkil etish, “Elektron jinoyat ishi” loyihasini sinov tariqasida dastlab ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar bo‘yicha tatbiq etish taklif etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Jinoyat ishlarini yuritishni bosqichma-bosqich raqamlashtirish sharoitida surishtiruv va dastlabki tergov olib borish tartibini takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlanib, unda surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida raqamlashtirish ahvoli bo‘yicha xalqaro tajriba tahlil qilingan. Surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida raqamlashtirishni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, jinoyat ishlarini yuritishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari keltirib o‘tilgan.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda (Koreya, Turkiya, AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston va boshqa) surishtiruv hamda tergov organlari faoliyatini raqamlashtirish borasida joriy qilingan imkoniyatlar tahlil qilingan.

Xususan, Koreya Respublikasida “KICS” *(Korea information system of criminal – justice services)*, Turkiyada “UYAP” *(Ulusal Yargı Ağı Projesi)* elektron axborot tizimlari joriy qilingan bo‘lib, ushbu axborot tizimlari orqali jinoyat ishlarini elektron shakllantirish tartibi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, mazkur axborot tizimlarida jinoyat ishini yuritishga aloqador bo‘lgan barcha mas’ul tashkilotlarga tegishli axborot tizimlari birlashtirilgan.

[5] Bosh prokuratura tomonidan tayyorlangan “Elektron jinoyat ishi” axborot tizimi taqdimoti (53 varaq). 2018-yil *(ma’lumot o‘rnida, ushbu miqdor 2018-yildagi narxlar bo‘yicha shakllangan).*

Koreya Respublikasi jinoyat ishlarini yuritish jarayonini raqamlashtirishga shoshilmagan. Dastlab, mast holatda va litsenziyasiz transport vositasini boshqarish bilan bog‘liq jinoyat ishlari bo‘yicha ish yurituv to‘liq raqamlashtirilgan. Bu ish yuritish muddatini 4 oydan 28 kungacha qisqartirgan. 2011-yildan boshlab jami jinoyat ishlarining 30 foizi to‘liq elektron shaklda yuritila boshlangan.

Koreyaning elektron jinoyat ishi loyihasini dastlab yengilroq toifadagi jinoyat ishlari bo‘yicha joriy qilish, individual kabinet orqali jinoyat ishlarining harakati haqida xabardor bo‘lib borish kabi yo‘nalishlardagi tajribasidan milliy qonunchiligimizda foydalanish mumkinligi haqida to‘xtamga kelingan.

Turkiyaning Adliya vazirligiga qarashli “UYAP” elektron axborot tizimidan 2000-yildan buyon foydalanib kelinadi. Mazkur elektron axborot tizimining 34 ming nafardan ortiq doimiy foydalanuvchilari mavjud bo‘lib, 25 mln. ga yaqin fayllar jamlangan va har kuni 50 mingga yaqin yangi fayllar kiritib boriladi. “UYAP”dan 6 ming nafarga yaqin sudya, 4,5 ming nafardan ortiq advokat, 3 ming 700 nafardan ortiq prokuror hamda ko‘plab boshqa xodimlar foydalanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida Qozog‘iston Respublikasida 2015-yildan boshlab jinoyatga oid ariza va xabarlarni elektron ro‘yxatdan o‘tkazish imkonini beruvchi “Sudgacha tergovlar yagona reestri” joriy etilgan. Qozog‘iston Respublikasi Bosh prokuraturasi tashabbusi bilan 2017-yilda “Elektron jinoyat ishi” elektron axborot tizimi ishlab chiqilgan. Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida shu yildan boshlab mazkur axborot tizimining protsessual tartibi mustahkamlab qo‘yilgan.

Rossiya, Koreya, AQSh va Germaniya qonunchiligini tahlil qilish natijasi bo‘yicha videoyozuvdan foydalanish orqali xolislar ishtirokini cheklash haqida xulosaga kelingan bo‘lsa, Fransiya, Xitoy, Koreya va Turkiya tajribasi asosida jinoyat protsessi ishtirokchilarini elektron xabardor qilish tizimini milliy qonunchiligimizga tatbiq etish tavsiya qilingan.

Dissertatsiya doirasida surishtiruv va dastlab tergovda jinoyat ishlarini yuritishni raqamlashtirishni takomillashtirish bo‘yicha bir qator takliflar ilgari surilgan.

Xususan, videoyozuvdan foydalanishning protsessual tartibini ishlab chiqish, undan foydalanish majburiy bo‘lgan protsessual harakatlar doirasini kengaytirish orqali jinoyat protsessida xolislar ishtirokini minimallashtirish, ashyoviy dalillarni elektron ro‘yxatga olish, protsess ishtirokchilarini jinoyat ishining harakati va boshqa masalalar to‘g‘risida elektron xabardor qilish, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni undirish jarayonini raqamlashtirish, elektron axborot dasturlari imkoniyatlaridan foydalangan holda jinoyat ishlarini taqsimlash hamda surishtiruv va tergovga tegishlilik masalasini hal qilish, prokuror nazoratini raqamlashtirish, ishni sudga qadar yuritish bosqichida “Xabeas korpus” institutining qo‘llanilishida raqamlashtirishdan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Xolislikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega va shaxsning konstitutsion huquqlari cheklanishi bilan bog‘liq bo‘lgan tanib olish uchun ko‘rsatish, ko‘zdan kechirish, murdani eksgumatsiya qilish, pochta-telegraf jo‘natmalarini ko‘zdan kechirish va olib qo‘yish, ekspertiza tadqiqoti uchun namunalar olish, taqdim etilgan

ashyolar va hujjatlarni qabul qilish hamda mol-mulkni xatlash bilan bog‘liq protsessual harakatlarni amalga oshirishda videoyozuvni qo‘llash majburiyligini jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilash taklif etilgan.

Jinoyat bo‘yicha yetkazilgan zararni undirish jarayoni raqamlashmaganligi bois, zararni to‘lash uchun oqilona muddat berilmayotganligi, shuningdek, bunda soxtakorlik holatlari mavjudligi o‘tkazilgan amaliy tahlillarda aniqlangan. Tergov organiga zarar to‘langanligi haqida qiymati 230 mln. so‘mlik soxta to‘lov hujjati taqdim etilganligi bilan bog‘liq 5 ta holat yuzasidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi ta’minlangan.

Respublika bo‘yicha 2023-2024-yillarda jami 129 412 ta jinoyat ishlari tamomlangan bo‘lib, ularning 36 foizi zarar bilan bog‘liq. Ular bo‘yicha 36 511 nafar shaxsga qamoq, 22 443 nafariga garov ehtiyot chorasi qo‘llanilgan. 12,3 trln. so‘m zarardan 10,6 trln. so‘mi undirilib, shundan 81 foizi naqd pul shaklida to‘langan.

Tergovga tegishlilik qoidasi buzilishi bilan bog‘liq holatlar *(JK 169-moddasi 2-qismi “d” bandi bilan bog‘liq prokuratura tergoviga tegishli 16 ta jinoyat ishi ichki ishlar tergovida ekanligi)* axborot tizimini o‘rganishda aniqlanib, raqamlashtirish orqali muammoga yechim taklif qilingan.

Qonunchilikda jinoyat ishlarini surishtiruvchi va tergovchilar o‘rtasida taqsimlashning aniq tartibi aks etmaganligi ishlarni xodimlar soniga nomuvofiq tarzda taqsimlash holatlariga olib kelayotganligi amaliy misollar bilan yoritib berilgan. Masalan, Toshkent shahar prokuraturasining O‘ta og‘ir jinoyatlarni tergov qilish bo‘limining bir tergovchisi ish yurituvida 2 ta jinoyat ishi bo‘lsa, birida bu ko‘rsatkich 21 tani tashkil qilgan.

Respublika bo‘yicha surishtiruv va tergov organlari tomonidan, birgina, 2024-yilda 75 232 ta jinoyat ishlari tamomlangan. Surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida aniqlangan qonun buzilishi faktlarini bartaraf etish bo‘yicha 54 338 ta ko‘rsatmalar berilgan.

Tamomlangan jinoyat ishlarini o‘rganish ko‘rsatkichi respublikadagi har bir prokuror uchun yiliga o‘rtacha 331 tani, berilgan ko‘rsatmalar esa, 239 tani tashkil etadi. Prokurorlar tomonidan jinoyat ishini to‘xtatish bo‘yicha 776 ta, jinoyat ishini tugatish haqida 1 948 ta asossiz qabul qilingan qarorlar bekor qilingan, 170 nafar xodimlarga yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar uchun intizomiy jazo choralari qo‘llanilgan.

Katta hajmli ish hisoblangan bu jarayonda prokuror nazoratini planshet yordamida masofadan amalga oshirish yo‘li bilan raqamlashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Masalan, birgina jinoyat ishlarining tergovi ustidan nazoratni ta’minlash uchun yuritiladigan yig‘ma jildlarni to‘liq raqamlashtirish orqali yiliga 1 mlrd. so‘mgacha mablag‘larni tejab qolish mumkin.

Dissertatsiyaning mazkur bobida sun’iy intellektning qisqacha tarixi, xalqaro indeksda mamlakatimizning o‘rni, uni jinoyat protsessiga joriy qilishning ijobiy va salbiy jihatlari, bu boradagi ilmiy qarashlar, xorijda joriy qilingan sun’iy intellekt tizimlari, sun’iy intellektni sohaga joriy etish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar hamda uning imkoniyatidan foydalanish yo‘nalishlari haqida bahsga kirishilgan.

Aniqlanishicha, Buyuk Britaniyaning “Oxford Insights” tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “Hukumatlarning sun’iy intellektga tayyorligi indeksi” *(Government artificial intelligence readines index)* bo‘yicha O‘zbekiston so‘nggi to‘rt yil davomida ijobiy tomonga yuqorilab, 158-o‘rindan 79-o‘ringa chiqqan[6]. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda sun’iy intellekt tizimlarining joriy etilganligi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Biroq, surishtiruv va dastlabki tergov faoliyatida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi munozarali bo‘lib qolmoqda. Shunga qaramasdan, xorijiy mamlakatlarning sud-tergov faoliyatida sun’iy intellektdan allaqachon foydalanila boshlangan. Masalan, AQShda “Dare” sun’iy intellekti yordamida taqdim etilgan ko‘rsatuvlarning haqqoniyligini aniqlash tizimi yaratilgan. Uning aniqlik darajasi 92 foizni tashkil etadi. Bu ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan “poligraf” dasturi imkoniyatlaridan ko‘ra 5-7 foizga ko‘p degani. Yoki, Xitoyda sun’iy intellekt jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlash vazifasini ham bajarmoqda.

Pensilvaniya va Sheffild universiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan texnologiya jinoyat ishini tahlil qilish asosida aniq va qat’iy qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Test sifatida Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi tomonidan ko‘rib chiqilgan turli mazmundagi 584 ta ish sun’iy intellektga joylanib tadqiqot o‘tkazilgan. Natijada, 79 foiz holatda qabul qilingan qarorlar asl sud hujjatlariga muvofiq ekanligi aniqlangan.

Bundan farqli o‘laroq, dissertatsiyada sun’iy intellekt texnologiyalaridan yordamchi vosita sifatida foydalanish taklif etilgan. Tadqiqot ishi doirasida “surishtiruv va dastlabki tergov davomida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi” tushunchasiga ta’rif berilgan.

